XALQ DEPUTATLARI ULUG`NOR TUMANI KENGASHINING QARORI
Ulug`nor tumani

2023 - yil 29 - dekabr VI-54-107-1-26-K/23 Ulug‘nor tumani hokimligi

2024-yil uchun Ulug‘nor tuman mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuni, Budjet Kodeksining 27-, 99-moddalariga muvofiq hamda Andijon viloyati Kengashining 2023-yil 26-dekabr kungi № VI-57-255-1-0-K/23-sonli qarorini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Ulug‘nor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) hamda va Andijon viloyati Kengashining 2023-yil 26-dekabr kungi № VI-57-255-1-0-K/23-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qonunga muvofiq Ulug‘nor tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 26 783.7 mln.so‘m, xarajatlari 112 770.5 mln.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 85 986.8 ming.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun tumanning tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun tumanning tuman mahalliy budjetidan budjet mablag‘larini oluvchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha tuman mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Ulug‘nor tuman bo‘yicha G‘aznachilik xizmati bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5- ilovaga muvofiq belgilansin.

8. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ushbu Qarorda nazarda tutilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlarini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’i nazar, kamaytirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

9. 2024-yil uchun tumanning tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 002.7 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armasi tasdiqlangan tuman budjeti umumiy xarajatlarining (bundan tuman budjeti va jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Tumanning tuman budjetini ijro etish jarayonida yuqori turuvchi budjetdan ajratiladigan budjetlararo transfertlar miqdorlari oshgan taqdirda tuman budjeti zaxira jamg‘armasini belgilangan miqdori qayta ko‘rib chiqilmaydi.

Tuman budjetining zaxira jamg‘armasidan tuman budjetiga mablag‘lar ajratilgan taqdirda ushbu Qarorga o‘zgartirishlar kiritilmaydi.

10. 2024-yilda soliqlarning quyidagi turlari:

a) tuman mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushumlar;

aylanmadan olinadigan soliq;

tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar, 2024-yilining 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisi sonining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

b) viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

foyda solig‘idan tushgan tushumlar (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari);

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan.

v) quyidagi qonunchilikda belgilangan miqdorlarda Davlat budjetiga taqsimlanadigan daromadlar viloyat budjeti hamda tuman mahalliy budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

davlat bojlari;

jarimalar;

yig‘imlar;

g) tuman mahalliy budjetiga quyidagi ulushlarda:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning 50 foizi;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining 50 foizi;

davlat aktivlarini joylashtirishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlarning 50 foizi;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 25 foizi o‘tkaziladi.

Agar qonunchilikda daromadlarning budjet darajalari bo‘yicha taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, mahalliy budjetga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromadlarning turlari viloyat mahalliy budjetiga o‘tkaziladi.

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Xaydarov, Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Raxmonov), tuman soliq inspeksiyasi (B.Umatqulov) tumandagi mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tuman budjetini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetlar prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tuman mahalliy budjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlari bazasini oshirish va qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman soliq inspeksiyasi (B.Umatqulov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash

hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda belgilangan tartibda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

Kadastr agentligi tuman bo‘limi (D.Isaqov) bilan birgalikda xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish hamda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning yer uchastkalari va mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini ta’minlasin.

Majburiy ijro byurosi Ulug‘nor tuman bo‘limi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud qarzdorliklarni budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha zaruriy chora-tadbirlarni ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman soliq inspeksiyasi (B.Ummatqulov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (D.Isaqov), Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi inspeksiyasi tuman bo‘limi (I.Maxmudov) hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallari hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilsin.

14. Tuman hokimligiga:

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Andijon viloyat hududiy boshqarmasi bilan hamkorlikda quyidagi ishlarni amalga oshirsin.

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini doimiy shakllantirib borish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar

tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «E-IJRO Auksion» elektron savdo maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

15. Tuman soliq inspeksiyasi (B.Umatqulov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Raxmonov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (shu jumladan, ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2024-yilning 1-iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar hisoblanishi hamda 2024-yilning 1-sentabridan kechiktirmay budjetga o‘tkazilishini ta’minlasin.

16. Tuman hokimligiga:

- Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Andijon viloyati hududiy boshqarmasi bilan hamkorlikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

17. Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza bo‘limi (E.Kamolov) va tuman soliq inspeksiyasi (B.Umatqulov)ga tuman hokimliklari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar tegishli mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

18. Tuman ichki ishlar bo‘limi (X.Abduraxmonov), Tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (N.Babashev), tuman adliya bo‘limi (B.Saidov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda tegishli budjetlarga undirish choralarini ko‘rib borsin.

19. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatish va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berish maqsadida monitoring qilish;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirib borsin.

20. Tuman hokimligiga:

jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga tuman mahalliy budjeti jami xarajatlarining (bundan tuman budjeti zaxira jamg‘armasi mablag‘lari mustasno) 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m rejalashtirilishi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida
30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman Kengashi deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilsin.

21. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Xaydarov, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi M.Raxmonov, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati mudiri G.Bobojonova hamda mutasaddi idora va tashkilot rahbarlariga:

mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borish;

tuman mahalliy budjetining 2024-yil davomida budjetdan mablag‘ oluvchi budjet tashkilotlarining xarajat moddalari kesimida amalga oshirilgan xarajatlari hamda budjet tashkilotlarining so‘rovlaridan kelib chiqib, iqtisod qilingan mablag‘lar hisobidan birinchi darajali to‘lovlar va boshqa zaruriy xarajatlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish, tuman hokimligi zaxira jamg‘armasiga hamda tuman mahalliy budjetiga o‘zgartirishlar kiritsin.

22. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Raxmonov) hamda tuman soliq inspeksiyasi (B.Umatqulov)ga:

Tuman mahalliy budjetining ijro etilishi hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorak yakuni bo‘yicha keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar tuman Kengashiga hisobot kiritib borsin.

23. Tuman hokimining matbuot kotibi (S.Sirojiddinov) hamda “Ulug‘nor” gazetasi muharririga:

mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga hamda “Ulug‘nor” gazetasi sahifasiga joylashtirilishini ta’minlasinlar.

24. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

25. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **M. Ahmadjonov**

Xalq deputatlari Ulug‘nor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-54-107-1-26-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun tumanning tuman mahalliy budjeti daromadlari PROGNOZI

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Summa
1	Aylanmadan olinadigan soliq	2 834 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	6 137 750,0
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 741 000,0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i	4 784 000,0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	566 000,0
7	Yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i	3 072 000,0
8	Qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	17 000,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 174 000,0
10	Ijara to‘lovlari	37 000,0
11	Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan tushumlar	421 000,0
JAMI		**26 783 750,0**
Viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar		**85 986 768,0**
Hamma daromadlar		**112 770 518,0**

Xalq deputatlari Ulug‘nor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-54-107-1-26-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun tumanning tuman mahalliy budjetidan budjet mablag‘larini oluvchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari bo‘yicha

KO‘RSATKICHLAR

ming so‘mda

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
a	**Xarajatlar miqdori, jami**	**112 770 518,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**112 770 518,0**
1	**Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi**	**15 315 167,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	15 315 167,0
2	**Tibbiyot birlashmasi**	**47 404 802,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	47 404 802,0
3	**Madaniyat bo‘limi**	**3 756 384,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 658 522,0
	Musiqa va sanat maktabi	2 097 862,0
4	**Yoshlar siyosati va sport bo‘limi**	**3 099 414,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 099 414,0
5	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**420 792,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	420 792,0
6	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**11 685 781,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 685 781
	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000 000
7	**Irrigatsiya tizimlari bo‘limi**	**1 938 589,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 938 589,0
8	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**1 705 070,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 705 070,0
9	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**1 083 748,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 083 748,0
10	**Kambag‘alikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**1 646 805,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 646 805,0
11	**Soliq inspeksiyasi**	**3 052 692,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 052 692,0
12	**Hokimiyat**	**15 319 597,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 283 244
	Ozodlikdan maxrum etish jazoni o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuvga ko‘maklashish xarajatlari	31 500,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	11 491 439,0
	Zahira jamg‘armasi	1 002 763,0
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	510 651
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
13	**Xalq qabulxonasi**	**154 896,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	154 896
14	**Yoshlar ishlar agentligi**	**2 207 157,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 207 157,0
15	**Oila va xotin-qizlar bo‘limi**	**1 439 262,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 439 262,0
16	**Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati**	**229 913,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	229 913
17	**Hokim yordamchilari**	**2 310 449,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 310 449

Xalq deputatlari Ulug‘nor tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-54-107-1-26-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari bo‘yicha

KO‘RSATKICHLAR

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Foyda solig‘i	Aylanma-dan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosida to‘lanadigan soliq, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i
1	Ulug‘nor tumani	0	100	25	100	100	100	100	100	0

3-ilova davomi

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Yig‘imlar (3422203 doromad kodlari bo‘yicha)*	Davlat bojlari (3422103 doromad kodlari bo‘yicha)*	Jarimalar (3430103 doromad kodlari bo‘yicha)*	Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar	Davlat mulkini xususiylash-tirishdan olingan daromadlar	Yer uchastka-lariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari	Davlat mulkini ijaraga berishdan tushumlar	Boshqa (3450603, 3450723, 3450725, 3450950, 3450951, 3511117, 3511700, 3710303 doromad kodlari bo‘yicha) tushumlar*
1	Ulug‘nor tumani	50	50	100	100	100	0	50	50	100	100

*Mazkur ilovada ko‘rsatilganidan tashqari qolgan barcha tushumlar viloyat budjetiga o‘tkaziladi.

Xalq deputatlari Ulug‘nor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-54-107-1-26-K/23-son qaroriga
4-ilova

2024-yil uchun tuman mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlari PROGNOZLARI

ming so‘mda

№	Hudud nomi	Daromadlar*	Xarajatlar
	JAMI	**26 783 750.0**	**112 770 518.0**
1	Ulug‘nor tumani	26 783 750.0	**112 770 518.0**

* Tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni inobatga olmagan holda.

Xalq deputatlari Ulug‘nor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-54-107-1-26-K/23-son qaroriga
5-ilova

2024-yil uchun tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar

MIQDORLARI

ming so‘mda

№	Hududlar nomi	Summa	*shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajaratiladigan mablag‘lar**
	JAMI	**85 986 768.0**	**10 876 587.0**
1	Ulug‘nor tumani	85 986 768.0	10 876 587.0

* tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar.

Xalq deputatlari Ulug‘nor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-54-107-1-26-K/23-son qaroriga
6-ilova

2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam MIQDORLARI

ming so‘mda

№	Hudud	Summa
JAMI		**449 000.0**
1	Ulug‘nor tumani	449 000.0